



MOLIYAVIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHDA SIMULYATORLAR VA GAMIFIKATSIYA

Foziljonova Niholaxon Fayoz qizi

*Namangan davlat universiteti, Iqtisodiyot fakulteti, Moliya sohasida
boshqaruv yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada moliyaviy ta'limgan rivojlanishda simulyatorlar va gamifikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati va samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida xalqaro tajriba va O'zbekiston moliyaviy ta'lim tizimidagi mavjud holat o'r ganilib, innovatsion yondashuvlar orqali moliyaviy savodxonlikni oshirish imkoniyatlari yoritilgan. Maqolada simulyatorlar va o'yinlashtirish elementlarining talabalarda amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yordam berishi, shuningdek, ularning o'quv jarayoniga bo'lgan motivatsiyasini oshirishdagi roli ta'kidlangan. Xulosa sifatida, moliyaviy ta'limganda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va pedagoglarning malakasini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Abstract. This article explores the significance and effectiveness of using simulators and gamification technologies in advancing financial education. The study analyzes international practices and examines the current state of financial education in Uzbekistan, highlighting opportunities to enhance financial literacy through innovative approaches. The findings suggest that simulators and gamified methods not only help students develop practical financial skills but also increase their motivation for learning. The paper concludes with recommendations for integrating modern technologies into financial education and improving teacher competencies.



Аннотация. В статье рассматривается значение и эффективность использования симуляторов и технологий геймификации в развитии финансового образования. В ходе исследования был проанализирован международный опыт и текущее состояние системы финансового образования в Узбекистане, а также раскрыты возможности повышения финансовой грамотности с помощью инновационных подходов. Отмечается, что симуляторы и элементы геймификации способствуют формированию практических навыков у студентов и повышают их мотивацию к обучению. В заключение представлены предложения по внедрению современных технологий в финансовое образование и повышению квалификации педагогов.

Kalit so‘zlar: moliyaviy ta’lim, simulyatorlar, gamifikatsiya, innovatsion texnologiyalar, moliyaviy savodxonlik.

Kirish. Hozirgi globallashuv davrida moliyaviy savodxonlik shaxsiy va ijtimoiy farovonlikning muhim omillaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Jahon banki va OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) ma’lumotlariga ko‘ra, moliyaviy bilimga ega bo‘lmagan shaxslar moliyaviy qarorlarni noto‘g‘ri qabul qilish, qarzdorlikka tushib qolish va jamg‘armalarni to‘g‘ri boshqara olmaslik kabi muammolarga duch kelmoqda. Shu sababli, ta’lim tizimida moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlarga ehtiyoj ortib bormoqda. An’anaviy o‘qitish metodlari o‘quvchilar va talabalarni yetarli darajada faol jalb qila olmasligi sababli, zamonaviy texnologiyalar asosida yangi uslublar ishlab chiqilmoqda. Jumladan, simulyatorlar va gamifikatsiya (o‘yinli texnologiyalar) moliyaviy ta’lim jarayonida keng qo‘llanilmoqda. Simulyatorlar real hayotdagi moliyaviy vaziyatlarni model qilish orqali o‘quvchilarga xavfsiz muhitda qaror qabul qilish tajribasini beradi. Gamifikatsiya esa o‘quv jarayoniga o‘yin elementlarini (ballar, reytinglar, mukofotlar) qo‘sish orqali motivatsiyani



oshiradi va interaktivlikni ta'minlaydi. So'nggi yillarda bu yondashuvlarning samaradorligi bo'yicha ko'plab xalqaro tadqiqotlar o'tkazilgan. Ularning natijalari shuni ko'rsatadiki, moliyaviy simulyatorlar va gamifikatsiya vositalari o'quvchilarning bilim darajasini oshiribgina qolmay, balki moliyaviy qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga ham yordam beradi. Shu bilan birga, bu texnologiyalar yosh avlod uchun qiziqarli va oson qabul qilinadigan bo'lishi bilan ajralib turadi. Mazkur maqola moliyaviy ta'lim jarayonida simulyatorlar va gamifikatsiyaning o'rni va ahamiyatini nazariy jihatdan o'rganishga qaratilgan. Shuningdek, ularning imkoniyatlari va mavjud cheklovleri tahlil qilinadi hamda O'zbekiston sharoitida joriy etish istiqbollarini muhokama qilinadi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda moliyaviy ta'lim jarayonida simulyatorlar va gamifikatsiya texnologiyalarining o'rni va ahamiyatini nazariy tahlil qilish yondashuvi asosida o'rganildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — ushbu innovatsion vositalarning samaradorligini aniqlash, ularni ta'lim jarayoniga joriy etishning ustunlik va cheklovlarini baholash hamda O'zbekiston sharoitida ularni qo'llash istiqbollarini yoritishdan iborat. Tadqiqot jarayonida ilmiy maqolalar, monografiyalar, xalqaro tashkilotlar (Jahon banki, OECD, UNESCO) hisobotlari va moliyaviy ta'limga oid boshqa nufuzli manbalar asosiy axborot manbai sifatida tanlandi. Ushbu manbalarda keltirilgan amaliy tajribalar, nazariy qarashlar va statistik ma'lumotlar o'rganilib, tahlil qilindi va umumlashtirildi. Adabiyotlarni tanlashda asosan so'nggi yillarda chop etilgan, zamonaviy o'quv texnologiyalarining samaradorligini ko'rsatib beruvchi ishlar ustuvor ahamiyat kasb etdi. Tahlil jarayonida bir nechta ilmiy yondashuvlar qo'llanildi. Jumladan, turli mamlakatlar tajribasini o'zaro solishtirish orqali taqqoslash usuli yordamida moliyaviy ta'limda simulyatorlar va gamifikatsiyaning qanday joriy etilgani o'rganildi. Shu bilan birga, tahliliy yondashuv asosida mavjud tadqiqotlar tahlil qilinib, bu texnologiyalarning o'quvchilarning bilim darajasi va qaror qabul qilish



ko‘nikmalariga ta’siri aniqlashga harakat qilindi. Olingan natijalar esa umumlashtirish orqali tartiblanib, muammo va imkoniyatlar aniqlandi.

Natijalar va munozara. Tadqiqot natijalari ko‘rsatadiki, moliyaviy savodxonlikni oshirishda simulyatorlar va gamifikatsiya elementlaridan foydalanish global miqyosda tobora ommalashib bormoqda va ularning samaradorligi bir qancha amaliy tajribalarda tasdiqlangan. Xususan, OECD tomonidan o‘tkazilgan PISA 2022 hisobotida 15 yoshli o‘quvchilarning 18 foizi moliyaviy savodxonlik bo‘yicha eng past darajada ekanligi qayd etilgan bo‘lsa, atigi 11 foiz o‘quvchi murakkab moliyaviy muammolarni yechishda yuqori natjalarga erisha olgan. Bu esa yoshlar orasida moliyaviy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish borasida jiddiy bo‘shliqlar mavjudligini ko‘rsatadi. Shu bois, ko‘plab mamlakatlarda o‘yinlashtirilgan ta’lim metodlari joriy qilinib, ularning samaradorligi yuzasidan tahlillar olib borilgan. Masalan, Avstraliyada moliyaviy simulyatorlardan foydalangan talabalar o‘rtasida o‘tkazilgan eksperimental tadqiqotda interaktiv yondashuv odatiy ma’ruzalarga nisbatan moliyaviy qaror qabul qilish samaradorligini 32 foizga oshirgan. O‘zbekiston tajribasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, 2024-yilda Global Money Week doirasida o‘tkazilgan tadbirlarda 428 ta maktab va 88 ta oliy ta’lim muassasasi jalb qilingan bo‘lib, 32 576 nafar yoshlar va 105 694 nafar kattalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyaviy ta’lim sessiyalarida ishtirok etgan. Ushbu tadbirlar keng ommaga ham tarqatilib, yana 1,6 million aholiga moliyaviy bilimlar yetkazilgan. Bundan tashqari, Trustbank tomonidan 2024-yilda Samarqand viloyatidagi 200 nafar maktab o‘quvchilari uchun tashkil etilgan o‘yinlashtirilgan moliyaviy treninglar ijobiy baholandi va o‘quvchilarning 70 foizi ushbu treninglardan so‘ng o‘z mablag‘larini samarali boshqarish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar hosil qilganini bildirgan. Ushbu ma’lumotlar O‘zbekistonda moliyaviy ta’limni interaktiv yondashuvlar orqali kengaytirish imkoniyatlari mavjudligini anglatadi. Ayrim ilmiy ishlar ham shuni ta’kidlaydiki, simulyator va gamifikatsiya elementlari orqali o‘qitish nafaqat bilim



darajasini oshiradi, balki talabalar va o‘quvchilarning o‘quv jarayoniga bo‘lgan motivatsiyasini ham kuchaytiradi. Jumladan, Deloitte kompaniyasi 2023-yilda o‘tkazgan tahlilida moliyaviy o‘yinlashgan ilovalardan foydalangan foydalanuvchilarning 47 foizi o‘z moliyaviy maqsadlarini an’anaviy o‘quv metodlariga nisbatan tezroq amalga oshirganini qayd etgan. Shunga qaramasdan, O‘zbekiston tajribasida ayrim cheklovlar ham mavjud. Jumladan, barcha ta’lim muassasalari zamonaviy texnologiyalar bilan to‘liq ta’milanmaganligi va o‘qituvchilar tomonidan o‘yinlashtirish texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarining yetarli emasligi metodlarning samaradorligini to‘laqonli ro‘yobga chiqarishga to‘sinqlik qilmoqda. Biroq, mavjud ijobjiy tajribalar va xalqaro amaliyotlar ushbu yondashuvlarni keng joriy etish orqali o‘quvchilarda moliyaviy fikrlash madaniyatini shakllantirish imkoniyatlarini ochib berayotganini ko‘rsatmoqda.

Xulosa. Moliyaviy ta’limni rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar sifatida simulyatorlar va gamifikatsiya texnologiyalaridan foydalanish yuqori samaradorlikka ega ekanligi ushbu tadqiqot natijalari va xalqaro tajribalar asosida tasdiqlandi. O‘yinlashtirilgan metodlar talabalarda nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy moliyaviy ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Global tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, bunday texnologiyalar o‘quvchilarning o‘quv jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshirib, ularni moliyaviy qaror qabul qilishda yanada faolroq ishtirop etishga undaydi. Xususan, OECD va Deloitte kabi yirik tashkilotlarning ma’lumotlari gamifikatsiyaning moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishda sezilarli ijobjiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. O‘zbekiston tajribasida ham o‘yinlashtirilgan yondashuvlarning dastlabki natijalari umidbaxsh bo‘lib, Global Money Week kabi tashabbuslar aholining keng qatlamlarini moliyaviy bilimlar bilan ta’minalashga xizmat qilmoqda. Biroq, bu borada texnologik infratuzilmaning yetarli emasligi va pedagogik kadrlarning yangi metodlarni qo‘llash bo‘yicha salohiyatini oshirish zaruriyati mavjudligi aniqlanmoqda. Shu bois, moliyaviy



ta’lim tizimida zamonaviy simulyatorlar va gamifikatsiya elementlarini joriy etishni yanada kengaytirish, ularni milliy ta’lim dasturlariga integratsiya qilish va pedagoglar uchun maxsus tayyorgarlik kurslarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Kelgusida ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlar moliyaviy simulyatorlar samaradorligini aniqlash uchun eksperimental metodlarni keng qo‘llashi, shuningdek, milliy kontekstda gamifikatsiya elementlarining o‘quvchilarga ta’sirini o‘rganishi lozim. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar yordamida aholining barcha yosh toifalariga moslashtirilgan moliyaviy o‘yinlar ishlab chiqish O‘zbekistonda moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishda muhim qadam bo‘lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. OECD. (2024). PISA 2022 results (Volume IV): How financially smart are students? OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/5a849c2a-en>
2. Financial Times. (2024, June 27). Teens lack financial literacy and maths skills for digital economy, OECD report finds. <https://www.ft.com/content/cbd46c42-9729-41ee-bc3e-16016924b779>
3. Journal of Behavioral and Experimental Economics. (2025). The impact of board games on the financial literacy of public-school students, 114, 102331. <https://doi.org/10.1016/j.soec.2024.102331>
4. Global Money Week. (2024). Uzbekistan. <https://www.globalmoneyweek.org/countries/205-uzbekistan.html>
5. Ipoteka Bank. (2024, May 14). Global Money Week 2024 – Ensuring financial security with the assistance of Ipoteka Bank. <https://www.ipotekabank.uz/en/news/news140524/>